



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK**  
**VAZIRLIGI**

100031, Toshkent shahri Mirobod ko‘chasi 15-uy. Telefon: (+998 71) 239-41-21

№ 01/00-01/13-1067  
07 - Fevral 2024 y.

**Vazirlik va idoralarga**  
*(ro‘yxat bo‘yicha)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi”ning 146-bandini ijro etish maqsadida vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi ishlab chiqildi.

Shu munosabat bilan, mazkur qaror loyihasini o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan reglamentga asosan kiritilmoqda.

Ilova \_\_\_\_ varaqda.

Vazir



Musayev B. A.

,

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi**

**TUSHUNTIRISH XATI**

**I. Qaror loyihasini ishlab chiqishning asoslanishi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yaingi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi”ning 146-bandi ijrosi yuzasidan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

**II. Qaror loyihasini qabul qilish zarurati**

Koreya Hukumati granti hisobiga Toshkent shahar Sergeli tumani 8-mavzeda joylashgan Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish hamda markaz faoliyatini Koreya tajribasiga asoslangan holda olib borish.

**III. Qaror loyihasida ko‘zda tutilayotgan asosiy yo‘nalishlar**

Loyihada quyidagilar nazarda tutilgan:

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti hisobidan Koreya tajribasi asosida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi muassisligida davlat ta‘lim muassasasi shaklidagi Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi tashkil etish;

“Ishga marhamat” monomarkazlari huzuridagi O‘quv-maslahat ofislari faoliyatini transformatsiya qilish;

kasbiy malakani baholash va tasdiqlash, o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta‘limi ustalari, muhandis-ustalar, pedagog kadrlar hamda ta‘lim faoliyatiga bevosita aloqador boshqa rahbar-xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

O‘zbekiston Respublikasining milliy malaka tizimini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

professional standartlarni ishlab chiqishda xorijiy tashkilotlar hamda ilmiy hamjamiyatlar bilan samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish orqali takomillashtirib borish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan ishchi kasblar boʻyicha mutaxassislar tayyorlashga doir oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar va ilmiy adabiyotlar ishlab chiqish.

#### **IV. Kutilayotgan natijalar**

Qaror loyihasining qabul qilinishi:

Kasbiy koʻnikmalar markazlarining muhandis-usta va oʻqituvchilarini malakasini oshirish, malakani baholash markazlariga uslubiy amaliy yordam koʻrsatish ishlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi tassarufidagi muassasalarda kasb-hunar, tadbirkorlik koʻnikmalari va xorijiy tillarga jaxon standartlar va ish beruvchilarning talablariga binoan oʻquv reja, dasturlar va uslubiy qoʻllanmalarni ishlab chiqiladi hamda takomillashtirib boriladi, oʻqituvchilarni malakasini oshirish maqsadida xorijiy kasbga tayyorlash va taʼlim muassasalarga yuboriladi, shuningdek xorijiy mutaxassislarni Oʻzbekistonga jalb qilinadi.

Vazir



Musayev B. A.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasiga**  
**ChEKLIST**

Yo‘nalishlar	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Javob			Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil mavjud bo‘lgan norma va uning asoslanishi	
<b>Normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar</b>	so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi	bor		yo‘q	+	
	noaniq va asossiz havolalarning qo‘llanilishi	bor		yo‘q	+	
	normativ-huquqiy hujjatlarda qarama-qarshiliklarning mavjudligi	bor		yo‘q	+	
<b>Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar</b>	diskresion vakolatlarning kengligi	bor		yo‘q	+	
	vakolatlarning noaniqligi	bor		yo‘q	+	
	davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi	bor		yo‘q	+	
	davlat organi tomonidan o‘z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi	bor		yo‘q	+	
	vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo‘lgan vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor		yo‘q	+	
	o‘z vaqtida tartibga solinmaslik	bor		yo‘q	+	
	manfaatlar to‘qnashuvi	bor		yo‘q	+	
	afzalliklarning asossiz ravishda belgilanishi	bor		yo‘q	+	
	normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish	bor		yo‘q	+	
	huquq va majburiyatlarning nomutanosibliigi	bor		yo‘q	+	

Yo'nalishlar	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Javob				Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil mavjud bo'lgan norma va uning asoslanishi
<b>Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar</b>	ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi	bor		yo'q	+	
	belgilangan qoidalardagi istisnolarning asossiz ravishda qo'llanilishi	bor		yo'q	+	
	ortiqcha va asossiz talablar belgilanishi	bor		yo'q	+	
	vaqt chegaralarining noaniqligi	bor		yo'q	+	
	to'lovlar miqdorlarining noaniqligi	bor		yo'q	+	
	sanksiyalarning nomutanosibliigi	bor		yo'q	+	
	davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hamda byudjetdan tashqari mablag'lar sarflanishining aniq va shaffof tartib-taomillari mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	solliqlar va yig'imlarni hisoblash hamda undirish tartib-taomillarining murakkabligi yoki noaniqligi	bor		yo'q	+	
	davlat korxonalari hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	huquq va imtiyozlar beruvchi hamda ma'muriy tartib-taomillarni belgilaydigan tanlov (auksion) tartib-taomillaridan bo'yin tovlash imkoniyatini beruvchi normalarning mavjudligi	bor		yo'q	+	
tadbirlarni amalga oshirish usullarining murakkabligi va ularni moliyalashtirish manbalarining noaniqligi	bor		yo'q	+		

Yo'nalishlar	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Javob				Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil mavjud bo'lgan norma va uning asoslanishi
<b>Nazorat-tekshirish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar</b>	tekshirish va taftish o'tkazish tartibining mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	shaffoflikni va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar	bor		yo'q	+	
	moliyaviy va boshqa sanksiyalarni qo'llash hamda undirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarda aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish shakllari va turlarining mavjud emasligi	bor		yo'q	+	

Vazir



Musayev B. A.